

TALABA YOSHLARDA MILLIY G`URURNI TARBIYALASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Navoiy davlat universiteti

“Pedagogika” kafedrasи

katta o‘qituvchi vb dotset

Feruza Xamidova Turdiyevna

Esonova Hilola Kamoliddin qizi

Pedagogika va psixologiya 4-kurs “P” guruh

Anatatsiya: Yoshlarda milliy g`ururni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat mohiyatini yaritishda “tarbiyalash”, “omil”, “pedagogik ta’sir”, “milliy g`urur” kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo`ladi. Milliy g`urur, eng avvalo, o`zligini anglash, milliy ravnaqini ta’minlash –yo’lidagi hatti-harakat, o`z millati istiqboli oldida mas’ullikning beqiyos namunasi ekanligi haqida fikir yuritilgan

Yoshlarda ajdodlar merosi vositasida milliy g`ururni tarbiyalash muammosi ijtimoiy harakterga ega. Yoshlarda milliy g`ururni tarbiyalash ularni Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo`lida fidokorona mehnat *qilishga* undaydi. Shuningdek, yoshlarda yashayotgan jamiyatda tinchlik va xavfsizlikning barqaror bo`lishi yo`lida kurashish, turli millat va elatga mansub kishilar o`rtasidagi o`zaro inoqlikning qaror topishiga o`z ulushini qo`shishga intilish ko`nikmalarining shakllanishi, ajdodlarga hurmat hamda millat vakili sifatida o’z qadr-qimmatini anglab yetishlarini ta’minlaydi.

Yoshlarda milliy g`ururni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat mohiyatini yaritishda “tarbiyalash”, “omil”, “pedagogik ta’sir”, “milliy g`urur” kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo`ladi. Shaxsini tarbiyalash tarbiya jarayonini tashkil etish chog`ida ro`y berib, shaxsda ma’lum ma’naviy-axloqiy, irodaviy va shaxsiy hislatlarni qaror toptiradi. Tarbiya ijtimoiy hayotning umumiyligi va muhim kategoriyasi hisoblanadi. Shu bilan

birga ijtimoiy xodisa sifatida bir qator xususiyatlarga ega. Masalan, ajdodlar tomonidan to`plangan tajribalarni avlodlarga yetkazish, insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlarni egallash, inson salomatligi va rivojini ta'minlash, dunyoqarashni tarkib toptirish va boshqalar. Tarbiya jarayonining samarasi maqsadining aniq belgilanganligi, faoliyat asosida tashkil etilgan faoliyatning natijalanganligi va uning mazmunida aks etuvchi ko`rsatkichlar bilan belgilanadi.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston Respublikasida shaxsning har tomonlama yetuk, barkamol bo`lib shakllanishini ta'minlovchi muhitning yaratilishiga e'tibor qaratildi va bu yo`lda keng ko`lamli harakat boshlab yuborildi, uning huquqiy asoslari ishlab chiqildi.

Biroq, pedagogika nazariyasi va amaliyotidan bizga yaxshi ma'lumki, o'quvchilarida ajdodlar merosi vositasida milliy g`ururni tarbiyalashda sezilarli ta'sir etuvchi yana bir muhit mavjudki, ayni vaqtda uni g`oyaviy jixatdan takomillashtirish zarur. Achinarli jixati shundaki, ko`p holatlarda mikromuhitning yengil-yelpi hayot kechirish, oson yo`l bilan moddiy farovonlikka erishish kabi g`oyalarga ega bo`lishini pedagogik, psihologik va falsafiy yo`nalishlarda olib borilgan qator taddiqotlarning natijalari ko`rsatmoda.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning uyg`unligi

Adabiyotlar (janriga ko`ra - ilmiy, diniy, tarixiy, badiiy; yo`nalishiga ko`ra - xalq og`zaki ijodi (ertak, doston, maqol, afsona, qo`shiqlar), qo`lyozmalar, klassik va zamonaviy asarlar, adabiyotlar, va x.,k..) Insonparvarlik, yutuqlari malakali pedagoglar imkoniyatidan foydalanish

Milliy iftixor tuyg`usi – o`zligini anglash va o`zgalarni tushunishga da'vat etuvchi qudratli kuch»^[288]

Ko`rinib turibdiki, mualliflar bu o`rinda g`urur tushunchasini shaxsga, iftixor tushunchasini millatga xos tuyg`u sifatida e'tirof etadilar. Aynan mana shu holat ular o`rtasidagi farqni ko`rsatuvchi ko`rsatkich sifatida qabul qilinadi. Har ikki tushunchaga berilgan ta'rifdan g`urur tushunchasi individuallik, iftixor tushunchasi esa ijtimoiylik xususiyatiga ega bo`ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Bu tuyg`u shaxsda quyidagi shakllarda namoyon bo`ladi:

- millatning yutuqlari, obro`-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq bo`lmaslik;
- xalqi, millatining taqdiri uchun jonkuyar bo`lish o`z millatining moddiy-ma'naviy merosini asrab-avaylash;
- xalq odatlari, an'analari, qadryatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish to`g`risida qayg`urish;
- xalqi, millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Milliy g`urur tuyg`usi milliy mansublikni chuqur anglash, uni e'zozlashga ma'naviy-ruhiy jixatdan kelib chiqqan ehtiyoj mahsulidir. Milliy g`urur, eng avvalo, o`zligini anglash, milliy ravnaqini ta'minlash –yo'lidagi hatti-harakat, o`z millati istiqboli oldida mas'ullikning beqiyos namunasidir. Milliy g`urur tuyg`usiga ega bo`lgan har bir kishi o`z millati o`tmishini yaxshi bilgan, qadrlay olgan va ayni paytda uni yangicha sharoitlar, holatlarda boyitib boradigan barkamol shaxsdir. Shu bilan bir qatorda o`sib kelayotgan yosh avlod boshqa millatlar milliy an'analari, san'ati va madaniyatini hurmat kilish qobiliyati, ularni anglash salohiyatiga ega bo`lmog`i lozim.

O`zbek xalqining ardoqli farzandlari bo`lgan ajdodlarimiz o`zida milliy g`urur tuyg`usini namoyon qila olgan. Jumladan, Maxmudxo`ja Bexbudiyning quyidagi so`zlarida milliy mansublikdan g`ururlanish yaqqol namoyon bo`ladi: “Biz o`z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbanlik sifatida kerak bo`lsa, biz o`limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz. mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq baxt-saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishslash bizga sayqal bo`ladi”[337]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida» gi qonuni 2020 yil 23

2.Sh Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqiyoti va xalq farovoligining garovi” –Toshkent 2017yil 22bet

3.Baxranov SH. SHaxs milliy o'zligini anglash qonuniyatlari. - Samarqand: Zarafshon, 1995. - 136 b.

4.Buyuk siymolar, allomalar: (Markaziy Osiyodagi mashxur mutafakkir va donishmandlar) K.2. -T.: A.Qordiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996. - 120 b.

5.Gappirov B.T. Talabalarda axloqiy o'z-o'zini anglashning o`quv jarayonidagi dinamik taraqqiyoti: Psix.fanl.nomz.... diss. —T.: 1993.-133 b.